

## IQTISODIYOTNI RAQAMLASHUVI SHAROITIDA INVESTITSION FAOLIYAT VA UNING AHAMIYATI

**Raxmatov Jonibek Ismoil o'g'li**

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
nodavlat ta'limmuassasasi magistranti*

**Bozorov Yashnarbek Xayrulla o'g'li**

*Qashqadaryo parmalash ishlari AJ buxgalteri*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola investitsiya va investitsiya faoliyati tushunchasining mazmun mohiyati, ularni iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyati, ularning subektlari hamda investitsiya va investitsiya faoliyati turlarining xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar asosidagi tahlilini o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** Investitsiya, investitsion faoliyat, investitsion faoliyat subyektlari, kapital investitsiya, moliyaviy investitsiya, real investitsiya.

### Kirish

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan milliy hamda xorijiy korxonalarining investitsiya faoliyati natijalari aks etgan hisobotlari xalqaro standartlar darajasida, haqqoniy va shaffofligi ta'minlangan holda shakllantirilmoqda.

Mamlakatimizdagi barqarorlik va qulay investitsiya muhiti natijasida tashqi iqtisodiy aloqalar izchil rivojlanmoqda.

Bugungi iqtisodiy globallashtirish jarayonida investitsion faoliyat har bir davlat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega element hisoblanadi. Boisi mazkur faoliyat mamlakatda sanoat ishlab chiqarish darajasini kengaytirishga va rivojlantirishga, iqtisodiyotning barqaror hamda progressiv o'sishiga xizmat qiladi. Shu bois investitsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi har bir davlat o'zining bu boradagi aniq maqsadlarini ifodalovchi yo'l xaritasini ishlab chiqadi. Xususan, mamlakatimizda ham investitsiyalarni turli sohalarga jalb etish, ularning oqimini kengaytirish, investitsion faoliyatni rag'batlantirish bo'yicha turli reja va dasturlar ishlab chiqildi.

"Investitsiya" atamasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, "invest", ya'ni "qo'yilma" degan ma'noni anglatadi. Umuman olganda, investitsiya deganda foyda olish yoki boshqa foydali maqsadga erishish uchun tadbirkorlik yoki boshqa faoliyatga jalb qilinadigan pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, moddiy va nomoddiy boyliklar, shu jumladan, mol-mulkka bo'lgan huquqlar nazarda tutiladi.

### Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Iqtisodiyotimizga kiritilayotgan investitsiyalarning yildan yilga o'sib borishida bir qator investitsion qulayliklar va qulay investitsiya muhiti shakllanganligini keltirib o'tish joiz. Erkin iqtisodiy zonalar,

texnoparklar, kichik sanoat zonalarining tashkil qilinishi to'g'ridanto'g'ri chet el investitsiyalarini jalb qilishning asosiy omili bo'ldi. Investitsiya tushunchasiga ko'plab xorijiy adabiyotlarda turlicha ta'rif berib o'tilgan. Xususan, ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyaga nisbatan foyda olish maqsadida muayyan sohaga joylashtirilgan kapital sifatida qaralsa [1], boshqalarida investitsiya bu asosiy kapitalni ko'paytirish maqsadida xo'jalik faoliyatiga kiritiladigan har qanday aktivlar deb ta'riflanadi.

Y.Mitskevichning fikricha, investitsiya bu daromad olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida moddiy va moliyaviy vositalarni, shuningdek, mol-mulkka hamda intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni turli faoliyat obektlariga qo'yilma sifatida jalb qilishdir.[2]

P.Vaxrin ham investitsiya tushunchasiga ta'rif berar ekan, unga kapitalni joylashtirish usuli sifatida qarab, bu orqali kapitalni saqlash yoki uning asl qiymatini oshirish hamda ijobiy hajmdagi darmodga ega bo'lish ekanligini ta'kidlaydi.[3]

A.Neshitoy investitsiya tushunchasiga nisbatan quyidagicha qarashni ilgari suradi: "Investitsiya bu foyda olish yoki boshqa samaralarga erishish maqsadida o'z yoki o'zga mamlakatning turli tarmoqlariga, tadbirkorlik loyihalari, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar ham innovatsiya loyihalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan pul mablag'larini (kapitalni) uzoq muddatga joylashtirishdir".[4]

Bir qancha o'zbek iqtisodchi olimlari xususan, A.Vahabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminovlar investitsiyaning mazmun-mohiyati boyicha quyidagi fikrlarni ilgari suradi: "Investitsiyalar – foyda olish yoki ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obektlariga va boshqa faoliyat turlariga qoyiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklardir".[5]

G'arb olimlari jumladan, U.Sharp, G.Aleksander, J. Beylilar investitsiya tushunchasiga "bu kelajakda daromad olish uchun bugun o'zingdan ajratilishi kerak bo'lgan kapitaldir" - deya izoh beradilar.[6]

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, ilmiy monografiyalari, o'quv qo'llanmalari va maqolalarini tahlil qilish, statistik tahlillari, jadvallarni analitik taqqoslash, guruhlash, miqdor va sifat ko'rsatikichlarni hisoblash, ularni bir-biri bilan solishtirish kabi uslublardan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar**

Iqtisodiyotni raqamlashuvi sharoitida korxonalarga investitsiyalarni samarali jalb etish, undan oqilona foydalanish va raqobatbardoshligini ta'minlash jarayoni investitsiya faoliyatini tahlil qilish hamda baholashning yangi zamonaviy uslublaridan foydalanish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Hozirgi kunda korxonalarga siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar ta'siri hamda turli kutilmagan iqtisodiy inqirozlar, xorijiy investitsiyalarni jalb etuvchanlik darajasini oshirishni talab etmoqda.

Investitsion faoliyat tushunchasi investitsiya hamda investor kabi tushunchalarga asoslangan bo'lib, bu bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun dastlab mazkur tushunchalar haqida so'z yuritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

Investitsiya va investitsion faoliyat tushunchalari bir-biri bilan mustahkam bog'liq bo'lib, mazkur faoliyat tor va keng ma'noda talqin qilinadi. Investitsion faoliyat tor ma'noda investitsiya qoyilmalarini biror bir sohaga yo'naltirish va shu orqali kapital hajmini o'zgartirish jarayonini ifodalasa, keng ma'noda foyda olish maqsadida sarmoyalarni investitsiya obektiga joylashtirish bilan bog'liq harakatlar yig'indisini ifodaydi.

Investitsiya tushunchasiga ba'zi bir xalqaro ko'p tomonlama shartnomalarda ham ta'rif berib o'tilgan bo'lib, xususan, 1997-yilda qabul qilingan Investorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Moskva konvensiyasining 1-moddasiga muvofiq investitsiya bu investorlar tomonidan foyda olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida moliyaviy va moddiy vositalarni shuningdek, mol-mulkka hamda intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni agar ular mazkur shartnomaga a'zo davlatlarning milliy qonunchiligiga ko'ra muomaladan chiqarilmagan yoki muomalada bo'lishi cheklanmagan bo'lsa, turli faoliyat obektlariga jalb qilishdir.[7]

Investitsiya faoliyati muayyan maqsad, vosita va natijani o'z ichiga oladi. *Investitsion faoliyatning maqsadi* jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining yuqori darajasiga erishish bo'lsa, uning vositalari bo'lib investitsiya, investitsion salohiyat hamda investitsiya jarayonlari hisoblanadi. Investitsion qoyilmalardan daromad olish, mavjud kapitalni hamda investitsion resurslarni ko'paytirish va ulardan samarali foydalanish shart- sharoitlarini yaratish investitsion faoliyatning natijasi sifatida baholanadi.

### Investitsiya faoliyatining belgilari

| t/r | Belgilari                                                                | Ta'rifi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
|-----|--------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1   | Mustaqil faoliyat                                                        | Investor tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil faoliyat. Mustaqil sarmoya: aktivlar tanlanadi, strategiyani ishlab chiqish va investitsiyalar mustaqil boshqariladi.                                                                                                                                                                                   |
| 2   | <b>Mol-mulk hamda mulkiy huquqlarni investitsiya qilish</b>              | Investor tomonidan крптитладиган moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalarни <b>investitsiya qilish</b>                                                                                                                                      |
| 3   | <b>Tavakkalchilikka muvofiq</b>                                          | Investor tomonidan tavakkalchiliklar asosida amalga oshiriladigan                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
| 4   | <b>Foyda olish yoki boshqa ijobiy samaraga erishishga yo'naltirilgan</b> | Investor tomonidan foyda olish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
| 5   | <b>Muayyan huquqiy shaklda amalga oshiriladigan</b>                      | Jismoniy va yuridik shaxslarning tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etish yoki tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan asosiy vositalarni ishlab chiqarish yoki ko'paytirish, ëshuningdek, davlat-xususiy sherikchilik loyihasini, shu jumladan konsessiya loyihasini amalga oshirish boyicha faoliyati investitsiya faoliyatidir |
| 6   | <b>Investitsiya vositalaridan maqsadli foydalanishni</b>                 | Investor tomonidan foyda olish yoki foydali natijaga erishish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat                                                                                                                                                                                                                                                    |

## Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

|   | ifodalovchi                               |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
|---|-------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 7 | Bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi | Investitsion faoliyat murakkab jarayon bo'lib u bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.<br>Birinchida investor tomonidan investitsiyaning maqsadi aniqlab olinib, uni amalga oshirish yo'nalishi hamda usullari belgilab olinadi. Ikkinchi bosqich investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha amaliy harakatlarni, xususan, huquqiy to'siqlarni bartaraf etish, zarur shartnomalarni imzolash, faoliyat boyicha ruxsatnoma va litsenziya olish kabilarni o'z ichiga oladi. Uchinchi bosqichga esa investitsiya vositalarini boshqarish, ular yuzasidan qarorlar qabul qilish, loyihani amalga oshirishda to'siq bo'luvchi hoatlarni bartaraf etish, daromadlarni taqsimlash, reinvestitsiya qilish kabi harakatlar kiradi. |

Bizning fikrimizcha, investitsiya deganda avvalo, vaqtincha b'ush tyrgan moliyaviy vositalar hamda boshqa mol-mulklarni foydali natijaga erishish uchun qonun bilan ta'qiqlanmagan har qanday faoliyatga jalb qilish, harakatga keltirishdir.

“Ko'p tomonlama investitsiya kafolatlari agentligni tashkil etish to'g'risida”gi 1985-yildagi Seul konvensiyasida investitsiya tushunchasiga izoh berilmagan bo'lsada, investitsiyalarning uch asosiy belgisi ko'rsatib o'tilgan. Bunda avvalo, konvensiya a'zolari investitsiyalarni pul qoyilmasi tarzida yoki natura shaklida amalga oshirilishi lozimligidan kelib chiqib harakat qiladilar.[8]

Demak, mazkur Konvensiya boyicha xizmat ko'rsatish investitsiya sifatida e'tirof etilmaydi. Investitsiyalarning keyingi belgisi shundan iboratki, Konvensiya investitsiyalarni o'rta muddatli yoki uzoq muddatli shuningdek, uzoq muddat davomida amalga oshirilishi lozimligini ko'zlaydi. Uchinchi belgi esa kapital qoyilmalarini amalga oshirish jarayonida tadbirkorlik riskining mavjud ekanligi, ya'ni investitsiya kiritishda foyda olish bilan bir qatorda moliyaviy zarar ko'rish xavfining ham mavjudligidir.

### Investitsiyalarning belgilari

| t/r | Belgisi                    | Ta'rifi                                                           |
|-----|----------------------------|-------------------------------------------------------------------|
| 1.  | <b>Sarf</b>                | Pul qoyilmasi tarzida yoki natura shaklida amalga oshirilishi     |
| 2.  | <b>Muddati</b>             | O'rta muddatli yoki uzoq muddatli                                 |
| 3.  | <b>Riskning mavjudligi</b> | Amalga oshirish jarayonida tadbirkorlik riskining mavjud ekanligi |

Zamonaviy dunyoda investitsiyalar iqtisodiy sohaga subektlar o'z kapitalini istiqbolli aktivlarga sarmoya kiritish orqali oshirishi mumkin.

Investitsiya – bu uzoq muddatli istiqbolda kapitalni ko'paytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning eng samarali usullaridan biridir. Investitsiyalar – bu kelajakda foyda olish yoki

**Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"**

kapitalni o'stirish maqsadida pul yoki boshqa resurslarni investitsiya qilish jarayoni. Oddiy qilib aytganda, investitsiyalar foyda olish yoki kapitalni saqlab qolish maqsadida turli xil vositalarga mablag' sarflashdir. Bu aksiyalar, obligasiyalar, ko'chmas mulk, qimmatbaho metallar, kriptovalyuta, depozitlar, investitsiya fondlari va boshqalar bo'lishi mumkin.

Investitsiyalar uchun motivlar har xil bo'lishi mumkin:

Kapitalni ko'paytirish: Investitsiyalar qo'shimcha mablag'lar manbai yoki hatto asosiy daromad turiga aylanishi mumkin bo'lgan passiv daromad olish imkonini beradi.

Moliyaviy himoya: qimmatli qog'ozlar yoki ko'chmas mulk kabi uzoq muddatli aktivlarga investitsiyalar jamg'armalarni qadrsizlantiradigan inflyatsiyadan himoya qilishi mumkin.

Maqsadlarga erishish: investitsiyalar kadrlarni o'qitish, aktivlarni sotib olish, zamonaviylashtirish yoki boshqa asosiy maqsadlar uchun pulni tejashga yordam beradi.

Kapitalni saqlash va ko'paytirish: To'g'ri investitsiya yondashuvi kelajakda moliyaviy barqarorlikni ta'minlagan holda nafaqat to'plangan mablag'larni saqlab qolish, balki ko'paytirish imkonini beradi.

Investitsiyalarni asoslari quyidagilar:

-Maqsadlarni aniqlash: sarmoya bilan erishmoqchi bo'lgan maqsadlarni aniq belgilash. Bu to'g'ri vositalar va strategiyani tanlashga yordam beradi.

-Xatarlarni baholash: Har qanday sarmoya xavfni o'z ichiga oladi. Tanlangan aktivlarning xususiyatlarini o'rganish, mumkin bo'lgan yo'qotishlarni baholash va ularni minimallashtirish yo'llari topish.

-Diversifikatsiya: barcha mablag'laringizni bitta aktivga investitsiya qilmay turli yo'nalishlarga sarflash. Xatarlarni kamaytirish uchun kapitalni turli vositalar o'rtasida taqsimlash.

-Uzoq muddatli: Investitsiya – bu uzoq muddatli jarayon. Tez daromad olish kutilmaydi. Oqilona qaror qabul qilish usun muqobil variantlar ichidan maqbulini tanlash va riski kamroq strategiyani tanlash.

-Uzluksiz o'rganish: Investitsiyalar dunyosi doimo o'zgarib turadi. Yangiliklarni kuzatib borish, yangi vositalarni o'rganish va bilim va tajribani oshirish.

Investitsiyalar turlari quyidagilar:

Real investitsiyalar -moddiy hamda nomoddiy aktivlarga qaratilgan qoyilmalar; Real investitsiyalar: ko'chmas mulk, yer, asbob-uskunalar, qimmatbaho metallar kabi moddiy aktivlarga investitsiya qilish.

**Moliyaviy investitsiyalar- moliyaviy vositalarga asosan, qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan qoyilmalar.** Moliyaviy investitsiyalar: aksiyalar, obligasiyalar, depozitlar, investitsion fondlar, kriptovalyuta kabi moliyaviy vositalarga sarmoya kiritish.

Investitsiyalashda ishtirok etish xarakteriga ko'ra:

-to'g'ri investitsiyalar;

- portfel investitsiyalarga bo'linadi.

To'g'ri investitsiyalar investor tomonidan investitsiyalash jarayonidan investitsiya obektlarini izlash va tanlashda hamda investitsiya vositalarini qoyishda bevosita o'zi ishtirok etishini nazarda tutadi. To'g'ridan-to'g'ri sarmoya (to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar): biznes yoki loyihaga bevosita sarmoya kiritish.

**Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"**

Investitsiya vositachilari, tijorat banklari, fondlar va boshqa moliyaviy vositachilar orqali amalga oshiriladigan investitsiyalash portfel investitsiyalar hisoblanadi.

Portfel investitsiyalar: investitsiya portfelini shakllantirish, turli aktivlar to'plamiga investitsiya qilish. Bugungi kunda global iqtisodiyotda investitsiyalashning muayyan qismini portfel investitsiyalar tashkil etadi. Boisi barcha investorlar ham investitsiyalashni qanday amalga oshirish bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lmaydilar va bu investitsiya hamda moliyaviy vositachilar yordamidan foydalanishni taqozo qiladi.

Investitsiyalar shakllari:

Mustaqil sarmoya: aktivlar tanlanadi, strategiyani ishlab chiqish va investitsiyalar mustaqil boshqariladi.

Broker orqali investitsiya qilish: brokerlik hisobi ochiladi va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni professional brokerga ishonib topshiriladi.

Ishonchli boshqaruv: xususiy mablag'lar tanlangan strategiyaga muvofiq investitsiya qiladigan boshqaruv kompaniyasi rahbariyatiga o'tkaziladi

Investitsion faoliyat – bu foyda olish yoki kapitalni saqlash maqsadida turli xil aktivlarga mablag'larni qo'yishga qaratilgan harakatlar majmui.

Investitsion faoliyatga quyidagilar kiradi:

Bozor tahlili: Hozirgi iqtisodiy vaziyatni, bozor tendensiyalarini, istiqbolli tarmoqlar va kompaniyalarni o'rganish.

Investitsiya vositalarini tanlash: Maqsadlar, risklar va mavjud kapitalga muvofiq mos aktivlarni aniqlash.

Investitsion portfelni shakllantirish: investitsiya profiliga mos keladigan va risklarni diversifikatsiya qilishni ta'minlaydigan muvozanatli portfelni yaratish.

Investitsiyalarni boshqarish: portfel holatini monitoring qilish, bozor o'zgarishlariga mos ravishda tuzatishlar kiritish va maqsadlarga erishish.

Investitsiya – bu nafaqat pul topish usuli, balki moliyaviy kelajakni nazorat qilish imkoniyatidir.

Investitsiyalar xavf bilan bog'liq. Shuning uchun investitsiya qilishdan oldin har bir aktivni yaxshilab o'rganish kerak. Investitsiya qilishni boshlashdan oldin, barcha variantlarni diqqat bilan ko'rib chiqish va maqsad va imkoniyatlarga eng mos keladiganini tanlash kerak. Xavfni kamaytirish uchun portfel diversifikatsiya qilinadi.

Diversifikatsiya investitsiya qilishning eng muhim tamoyillaridan biridir. Bu har doim ham bir yo'nalishda harakatlanmaydigan turli aktivlar o'rtasida kapitalni taqsimlashni o'z ichiga oladi.

Diversifikatsiyaning afzalliklari quyidagilardan iborat:

-Riskni kamaytirish: Agar portfeldagi aktivlardan birining qiymati pasaysa, boshqalari oshishi mumkin.

-Barqarorlikning oshishi: diversifikatsiyalangan portfel bozor o'zgarishlariga nisbatan chidamliroq.

-Muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarining ortishi: Turli xil xususiyatlarga ega bo'lgan turli aktivlarga sarmoya kiritish umumiy foyda olish imkoniyatini oshiradi.

Investitsiya portfelini turlicha diversifikatsiya qilish mumkin.

**Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"**

Turli toifadagi aktivlarni tanlanadi: Aksiyalar, obligasiyalar, ko'chmas mulk, qimmatbaho metallar, kriptovalyuta – har bir aktiv sinfining o'ziga xos xususiyatlari va risklari mavjud. Turli sohalaridagi kompaniyalarga sarmoya kiritiladi: Barcha mablag'larni bitta sohaga investitsiya qilish kerakmas, chunki u inqiroz yoki boshqa salbiy omillardan aziyat chekishi mumkin.

Har xil turdagi aktivlardan foydalanish: katta va kichik kompaniyalarning aksiyalariga, turli emitentlarning obligasiyalariga, turli maqsadlar uchun ko'chmas mulkka investitsiya qilish.

Investitsiya portfelini muvozanatlashtirish: Vaqt o'tishi bilan portfeldagi aktivlar tarkibi o'zgarishi mumkin. Istalgan diversifikasiya darajasini saqlab qolish uchun uni muntazam ravishda muvozanatlashtirish kerak.

Diversifikasiya yo'qotishlardan 100% himoyani kafolatlamaydi, ammo bu xavfni sezilarli darajada kamaytirishi va uzoq muddatda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini oshirishi mumkin.

Investitsiya – bu nafaqat pul topish usuli, balki moliyaviy kelajakni nazorat qilish imkoniyatidir.

Investitsiya qilishni boshlash uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

-Maqsadlarni aniqlash: sarmoya bilan nimaga erish mumkinligi aniqlanadi

Bu to'g'ri vositalar va strategiyani tanlashga yordam beradi.

-Moliyaviyni ahvolni baholash: mavjud kapital, oylik xarajatlar va mumkin bo'lgan daromad manbalarini hisoblash.

Investitsiyalash asoslarini o'rganish: Kitoblar, maqolalar, ilmiy ishlanmalarni o'rganish, investitsiya olami haqida asosiy bilimlarni olish.

Brokerni tanlash: Turli brokerlarning takliflarini solishtirish va ehtiyojlarga mos keladigan va qulay shart-sharoitlarni taklif qiluvchini tanlash.

Brokerlik hisobini ochish: Bu onlayn yoki broker ofisida amalga oshirilishi mumkin. Brokerlik hisobini moliyalashtirish: investitsiya qilishga tayyor bo'lgan summani hisobga o'tkazish.

Investitsiya vositalarini tanlash: Qaysi aktivlar xavf darajasi, rentabellik va investitsiya davri nuqtai nazaridan mos kelishini aniqlash.

Investitsiya portfelini yaratish: sarmoyani diversifikasiya tamoyillariga rioya qilgan holda tanlangan aktivlar orasida taqsimlash.

Investitsiya qilishni boshlash: tanlagan aktivlarni brokerlik hisobi orqali sotib olish. Monitoring va muvozanatni tiklash: muntazam ravishda portfel holatini kuzatib borish, uning tarkibini bozordagi o'zgarishlarga va maqsadlarga mos ravishda moslash.

Investitsion strategiyalar:

Uzoq muddatli investitsiya: Bu qisqa muddatli bozor tebranishlarini e'tiborsiz qoldirib, uzoq muddatga mablag' investitsiya qiladigan strategiya.

Faol portfelni boshqarish: Bu investitsiya portfelini muntazam ravishda ko'rib chiqadigan va joriy bozor holatiga qarab o'zgartirishlar kiritadigan strategiya.

Passiv investitsiya: Bu boshqaruv xarajatlarini minimallashtirgan holda butun bozorning ish faoliyatini kuzatib boradigan strategiyadir.

O'sish strategiyasi: Bu kelajakda kapital o'sishi uchun yuqori salohiyatga ega bo'lgan aksiyalarga yoki boshqa aktivlarga sarmoya kiritadigan strategiya.

**Xulosa va takliflar**

Xulosa qilib aytganda, investitsiya – bu uzoq muddatli jarayon. Daromadni olish qisqa muddatda

amalga oshmaydi.

Bozor har doim o'zgarib turadi, ammo uzoq muddatda investitsiyalar foydali bo'ladi. Doimiy ravishda o'rganish va bilimingizni oshirish samara beradi. Investitsiyalar dunyosi doimo o'zgarib turadi, shuning uchun so'nggi yangiliklar va tendensiyalardan xabardor bo'lish muhimdir.

Investitsiya – bu moliyaviy maqsadlarga erishishga yordam beradigan kuchli vositadir. Shu nuqtai nazardan aytish joizki, investitsiya faoliyat tushunchasining mazmunida investitsiyalash maqsadi, obekti va uning yo'nalishlari, investitsiyalash bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy harakatlar va nihoyat, muayyan ijobiy samara (foyda) olish motivi yotadi. Investitsiya faoliyatining tasniflanishi investitsiya va investitsion faoliyat to'risida yetarli bilim va tajriba esa investorlar tomonidan kapital qoyilamalarning maqsadini hamda obektini aniqlashda, kapital qoyilayotgan soha yuzasidan aniq tassavurga ega bo'lishga, ular xususida kengroq obektiv ma'lumotlar olishga imkon beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar royxati:**

1. Раҳмонкул, Джалилов. "ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИФИ БЎЙИЧА ИМТИЁЗЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ." *Gospodarka i Innovacje*. (2023): 377-388
2. Раймова, М. Д., & Гуломхасанов, Э. М. (2022). МАРКЕТИНГОВОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ В ТУРИЗМЕ. *Scientific progress*, 3(1), 475-479.
3. Raimova, M. D. (2021). ogli Makhatov SI DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT PRIORITIES IN UZBEKISTAN. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 160-168.
4. Ikramovich, R. Z., & Mirjalilovich, I. A. (2021, June). THE ROLE OF BANKING SERVICES IN ENSURING THE STABILITY OF THE BANK. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 132-133).
5. Хасанова, Ю. М. (2023). РЕГИОНЫ И ИХ РОЛЬ В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ. *Экономика и социум*, (10 (113)-2), 831-836.
6. Муртазаевна, Х. Ю. (2021). МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТ БАҲҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Журнал Инновации в Экономике*, 4(5).
7. Z.I. Ruziev, . (2022). THE ROLE OF TAXES IN THE FORMATION OF STATE BUDGET REVENUES. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(09), 58–65. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/eijmrms/article/view/23370>
8. Банковская система Республики Узбекистан в условиях цифровизации экономики...Авторы Хасанова Юлдуз Муртазаевна. Дата публикации 2023. Материалы конференции ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ РОССИИ: ВЫЗОВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ В МЕНЯЮЩЕМСЯ МИРЕ Том 5.. 121-126
9. Yulduz Khasanova, & Hulkar Eshtemirova. (2023). FINANCIAL INNOVATIONS IN THE PROCESS OF DEVELOPING THE DIGITAL ECONOMY. *Intent Research Scientific Journal*, 2(3), 86–90. Retrieved from <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/55>

**Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"**

10. ПОВЫШЕНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА ЮМ Хасанова *Gospodarka i Innowacje*. 29, 189-195
11. Advantages of Developing Cashless Settlement AI Rakhmatullaev, ZI Ruziev, IB Normamatov *Asian Journal of Technology & Management Research* [ISSN: 2249–0892] 10 (01
12. Murtazayev Nurbek Rashidovich, . (2023). DEVELOPMENT TENDENCIES OF THE NATIONAL FUND MARKET. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(02), 137–140. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/eijmrms/article/view/23070>
13. Djalilov, R. H. "Cameral management in the reform of administration and tax control. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 01 (81), 472-477." 2020
14. PECULIARITIES OF THE ACTIVITY OF THE INSURANCE INFRASTRUCTURE IN THE MARKET OF UZBEKISTAN. Авторы Хасанова Юлдуз Муртазаевна. Дата публикации 2024. Журнал GOSPODARKA I INNOWACJE. Страницы. Volume: 46 | 2024. Издатель [https://www.gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue\\_view\\_32/article/view/2457/2277](https://www.gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue_view_32/article/view/2457/2277)
15. Преимущества и риски цифровизации экономики. Авторы Хасанова Юлдуз Муртазаевна. Дата публикации 2024/1. Журнал Agro Ilm AGRAR-IQTISODIY, ILMIY-AMALIY JURNAL. Номер 98. Страницы 115-117. Издатель «NUR ZIYO NASHR» MCHJ bosmaxonasida chop etildi
16. THE SIGNIFICANCE OF REGULATORY INCOME IN THE SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT OF TERRITORIES IN UZBEKISTAN. Авторы Хасанова Юлдуз Муртазаевна. Дата публикации 2023/12/19. Журнал American Journal of Pedagogical and Educational Research. Номер ISSN (E): 2832-9791. Страницы 85-87. Издатель <https://www.americanjournal.org/index.php/ajper>
17. IMPORTANCE OF FOREIGN INVESTMENTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Дата публикации 2023/12/10. Журнал EUROPEAN INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND MANAGEMENT STUDIES. Номер <https://doi.org/10.55640/eijmrms-03-1>. Страницы 48-57. Издатель Evropa
18. Ўзбекистон Республикасида хорижий инвестицияларни жалб этишининг аҳамияти. Авторы Хасанова Юлдуз Муртазаевна. Дата публикации 2023/12/2. Журнал Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. Страницы 259-262. Издатель Маъмун академияси, 2023 й. – 280 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>
19. ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ И ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ РЕГИОНОВ РЕСПУБЛИКИ. Авторы Хасанова Юлдуз Муртазаевна. Дата публикации 2023/11/10. Материалы конференции «Iqtisodiy taraqqiyot va samarali boshqaruv: xalqaro tajriba, tendensiyalar va dolzarb masalalar». Том 3. Страницы 75-78
20. IMPORTANCE OF FOREIGN INVESTMENTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Авторы Хасанова Юлдуз Муртазаевна. Дата публикации 2023/10/12. Журнал EUROPEAN INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND MANAGEMENT STUDIES. Номер VOLUME 03 ISSUE 12. Страницы 48-57. Издатель DOI: <https://doi.org/10.55640/eijmrms-03-12-10>

21. Преимущества и риски цифровизации экономики ХЮ Муртазаевна Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси, 178-18
22. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ РОССИИ: ВЫЗОВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ В МЕНЯЮЩЕМСЯ МИРЕ. Авторы Хасанова Юлдуз Муртазаевна. Дата публикации. 2023/1/27. Материалы конференции. Банковская система Республики Узбекистан в условиях цифровизации экономики. Том 5. Страницы 121-126
23. РАЗВИТИЕ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ ХЮ Муртазаевна Барқарор ривожланиш мақсадларига эришишда хотин-қизларнинг роли 1, 273-276
24. Salohiddinov Jaloliddin, & Samiyev Sardor Iskandarovich. (2023). Theoretical Basics of the Significance of Investment Projects in Financing Investment Activities. Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 1(2), 7–10. Retrieved from <https://academiaone.org/index.php/2/article/view/50>
25. ANALYSIS OF THE IMPLEMENTATION OF INVESTMENT ACTIVITIES AND ITS FINANCING AT THE OIL AND GAS ENTERPRISES OF UZBEKISTAN SS Iskandarovich Gospodarka i Innowacje. 30, 109-115
26. Iskandarovich, S. S. (2021). The Sources of Funding, Procedure and Challenges of Investment Activity at Oil and Gas Enterprises of Uzbekistan. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 3(5), 77-84
27. Джалилов, Рахмонкул Хамидович. "ПРОБЛЕМЫ УЧЕТА НАЛОГА НА ДОБАВЛЕННУЮ СТОИМОСТЬ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ." Gospodarka i Innowacje. 46 (2024): 107-113
28. Джалилов, Р. Х. "ПРОБЛЕМЫ УЧЕТА НАЛОГОВОЙ ЛЬГОТЫ." Gospodarka i Innowacje. 46 (2024): 114-121
29. Djalilov, R. H. "RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ IMTIYOZLARINI HISOBGA OLISH MASALALARI." Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4.02 (2024): 143-149
30. Djalilov, R. H. "SOLUTION OF PROBLEMATIC SITUATIONS IN ACCOUNTING FOR TAX BENEFITS." Экономика и социум 4-1 (119) (2024): 112-117
31. Kh, Djalilov R. "THE ISSUE OF ACCOUNTING FOR VALUE ADDED TAX IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY." Экономика и социум 4-1 (119) (2024): 118-122.
32. Джалилов, Р. Х. "ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ НАЛОГОВОЙ ПРОВЕРКИ В НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЕ." Gospodarka i Innowacje. 46 (2024): 99-106
33. Джалилов, Р. Х. "СОЛИҚ ИМТИЁЗЛАРИНИ ҲИСОБГА ОЛИШ МАСАЛАЛАРИ." Экономика и социум 12 (115)-1 (2023): 1063-1069
34. Shuxratovna, Y. S. (2024). RAQAMLI VALYUTANI JORIY ETISHNING PUL-KREDIT TIZIMIGA TA'SIRI MASALALARI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4, 131-141.
35. Yakubova, S. (2023). DIGITAL DEVELOPMENT AND THE NATURE OF DIGITAL ASSETS. *Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari*, 3(3), 56-63.

36. Egamberdiyeva, S. (2023). XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA QISHLOQ XO 'JALIGIDA AKTIVLARNI TASNIFLASH VA ULARNING HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH. Innovatsion texnologiyalar, 52(04).